



# KRIMINOLOGIYA VA JINDOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2025-yil 2-söz

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025  
ISSUE DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.5.2.

ISSN 2181-2179  
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



**MUASSIS:**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK  
UNIVERSITETI**

"Kriminologiya va jinoiy odil sudlov" ilmiy-amalijy jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Olyi attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**Nashr bo'yicha mas'ul:**

O. Choriyev

**Muharrirlar:**

Y. Mahmudov, M. Sharifova,  
Sh. Beknazarova, Y. Yarmolik,  
E. Mustafayev

**Musahih:**

S. Rasulova

**Texnik muharrir:**

U. Sapayev  
**Dizayner:**  
D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahri,  
Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.ccj.tsul.uz](http://www.ccj.tsul.uz)

**E-mail:** [criminologyjournal@tsul.uz](mailto:criminologyjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1386.

**Nashriyot litsenziyasi**

Nº 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 23-iyunda,  
bosmaxonaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli bosma tabog'i: 6  
Adadi: 100. Buyurtma: № 115.

**Bosmaxona litsenziyasi**  
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili:  
100047. Toshkent shahri,  
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

**BOSH MUHARRIR**

*N. Salayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR**

*S. Samadov* – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b.

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

*D. Bazarova* – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat protsessual huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

**MAS'UL MUHARRIR**

*A. Otajonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

**TAHIRIR HAY'ATI A'ZOLARI**

*M. Rustambayev* – O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

*F. Raximov* – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

*Q. Abdurasulova* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

*V. Davlyatov* – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

*S. Niyozova* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

*Sh. Xaydarov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professor v.b., yuridik fanlar doktori

*R. Kabulov* – O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

*B. Umirkakov* – O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*A. Baratov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

*I. Astanov* – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

*B. Pulatov* – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

**УЧРЕДИТЕЛЬ:**  
**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Криминология и уголовное правосудие» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 18 марта 2021 года с удостоверением № 1160.

Журнал создан при сотрудничестве с правоохранительной академией Республики Узбекистан.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Ответственный за выпуск:**  
О. Чориев

**Редакторы:**

Й. Махмудов, М. Шарифова,  
Ш. Бекназарова, Е. Ярмолик,  
Э. Мустафаев

**Корректор:**

С. Расулова

**Технический редактор:**

У. Сапаев

**Дизайнер:**

Д. Ражапов

**Адрес редакции:**

100047. Город Ташкент,  
улица Сайилгох, 35.

**Тел.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.  
**Факс:** (0371) 233-37-48.

**Веб-сайт:** [www.ccj.tsul.uz](http://www.ccj.tsul.uz)  
**E-mail:** [criminologyjournal@tsul.uz](mailto:criminologyjournal@tsul.uz)

**Подписной индекс:** 1386.

**Издательская лицензия от**  
29.11.2023, № 174625.

Журнал передан в типографию  
23.06.2025.

Формат бумаги: А4.  
Усл. п. л. 6. Тираж: 100 экз.  
Номер заказа: 115.

**Лицензия типографии от**  
№ 174626, 29.11.2023.

Отпечатано в типографии  
Ташкентского государственного  
юридического университета.  
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

**© Ташкентский государственный  
юридический университет**

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**

*Н. Салаев* – доктор юридических наук, профессор кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**

*С. Самадов* – врио начальника Правоохранительной академии Республики Узбекистан

**ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА**

*Д. Базарова* – доктор юридических наук, профессор, заведующая кафедрой уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР**

*А. Отажонов* – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

**ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ**

*М. Рустамбаев* – доктор юридических наук, профессор, начальник Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

*Ф. Рахимов* – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

*К. Абдурасулова* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

*Б. Давлятов* – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

*С. Ниёзова* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

*Ш. Хайдаров* – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета

*Р. Кабулов* – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан

*Б. Умирзаков* – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент Академии МВД Республики Узбекистан

*А. Баратов* – кандидат юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета

*И. Астанов* – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

*Б. Пулатов* – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

**FOUNDER:**  
**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"The scientific-practical journal "Criminology and Criminal Justice" was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on March 18, 2021, with certificate No. 1160.

This journal was founded in cooperation with the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Publication Officer:**  
O. Choriev

**Editors:**  
Y. Makhmudov, M. Sharifova,  
Sh. Beknazarova, Y. Yarmolik, E. Mustafaev

**Proofreader:**

S. Rasulova

**Technical editor:**

U. Sapayev

**Designer:**

D. Rajapov

**Editorial office address:**  
100047. Tashkent city,  
Sayilgokh street, 35.

**Phone:** (0371) 233-66-36,  
233-41-09.

**Fax:** (0371) 233-37-48.

**Website:** [www.ccj.tsul.uz](http://www.ccj.tsul.uz)

**E-mail:** [criminologyjournal@tsul.uz](mailto:criminologyjournal@tsul.uz)

**Subscription index:** 1386.

**Publishing license**  
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 23.06.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f. 6.

Units: 100. Order: № 115.

**Printing house license**  
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.  
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

**EDITOR-IN-CHIEF**

*N. Salayev* – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

**EDITOR-IN-CHIEF**

*S. Samadov* – Acting Head of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF**

*D. Bazarova* – Head of the Department of Criminal and Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law , Professor

**EXECUTIVE EDITOR**

*A. Otajonov* – Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD**

*M. Rustambayev* – Head of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

*F. Rakhimov* – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

*Q. Abdurasulova* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*V. Davlyatov* – Doctor of Philosophy in Law (PhD), Associate Professor

*S. Niyozova* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*Sh. Khaydarov* – Acting professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*R. Kabulov* – Professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

*B. Umirzakov* – Associate professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law (PhD)

*A. Baratov* – Associate professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

*I. Astanov* – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

*B. Pulatov* – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

# MUNDARIJA

## 12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

**Sobitova Umidaxon Murod qizi**

FUQAROLARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH USTIDAN  
PROKUROR NAZORATINI TA'MINLASH MUAMMOLARI ..... 8

## 12.00.08 – JINDYAT HUQUQI. JINDYAT-IJROIYA HUQUQI

**Ametova Nurjamal Qudaybergenovna**

QO'SHIMCHA JAZO TUSHUNCHASI VA IJTIMOIY MAZMUNI ..... 22

**Mirzakarimova Dilafroz Doniyorjon qizi**

KIBERJINOYATLARNING TURLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 32

## 12.00.09 – JINDYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

**Sadriddinova Latofat Husniddin qizi**

YUQORI INSTANSIYA SUDLARINING FAOLIYATIDA SUN'YIY INTELLEKTDAN  
OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ..... 42

# СОДЕРЖАНИЕ

## 12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

**Собитова Умидахон Мурод кизи**

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОКУРОРСКОГО НАДЗОРА ЗА ОХРАНОЙ

РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ГРАЖДАН ..... 8

## 12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

**Аметова Нуржамал Кудайбергеновна**

ПОНЯТИЕ И СОЦИАЛЬНОЕ СОДЕРЖАНИЕ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО НАКАЗАНИЯ ..... 22

**Мирзакаримова Дилафруз Дониёржон кизи**

ВИДЫ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ И ИХ ОСОБЕННОСТИ ..... 32

## 12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

**Садриддинова Латофат Хусниддин кизи**

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО

ИНТЕЛЛЕКТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСШИХ СУДЕБНЫХ ИНСТАНЦИЙ ..... 42

# CONTENTS

## 12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

### **Sobitova Umidakhon Murod kizi**

PROBLEMS OF ENSURING PROSECUTOR'S SUPERVISION OVER THE PROTECTION OF REPRODUCTIVE HEALTH OF CITIZENS .....	8
--	---

## 12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

### **Ametova Nurjamal Kudaybergenovna**

THE CONCEPT AND SOCIAL CONTENT OF ADDITIONAL PUNISHMENT .....	22
---	----

### **Mirzakarimova Dilafroz Doniyorjon kizi**

TYPES OF CYBERCRIMES AND THEIR CHARACTERISTICS .....	32
--	----

## 12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

### **Sadriddinova Latofat Husniddin kizi**

PROSPECTS FOR THE RATIONAL USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE ACTIVITIES OF HIGHER COURTS .....	42
--	----

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.05.2025  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2025  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 23.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.2./TNDP8752

UDC: 343.241(045)(575.1)

# QO'SHIMCHA JAZO TUSHUNCHASI VA IJTIMOIY MAZMUNI

**Ametova Nurjamal Qudaybergenovna,**  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti  
ORCID: 0009-0006-6588-7003  
e-mail: mailto:nurjamal0652@gmail.com

**Annotatsiya.** Mamlakatimiz jinoyat qonunchiligidagi jazolar an'anaviy tarzda asosiy va qo'shimcha jazolarga ajratiladi. Bunday tasnif aksariyat xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligidagi ham mavjud bo'lib, u jinoyat-huquqiy siyosatni takomillashtirish va jazoni individuallashtirishga xizmat qiladi. Jazolarni bunday farqlash natijasida qo'shimcha jazolarning mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda ularning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati haqida ilmiy-nazariy muhokamalar olib borish zarurati yuzaga keladi. Qo'shimcha jazolarning mohiyati va yuridik tabiatini bilan bog'liq muammolar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jazo tushunchasiga berilgan umumiy ta'rif, ya'ni uning asosiy va qo'shimcha turlariga aniq ajratilmagani sababli yuzaga keladi. Jazoning maqsadi, uni tayinlash tartibi va qo'llash jarayonida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi. Qo'shimcha jazo turlarining o'ziga xos xususiyatlari ushbu jazolarni tayinlash shartlari, ularning mazmuni, qo'llanish tartibi, jazoni o'tashdan ozod qilish masalalari, sudsanganlik holati, amnistiya va afv jarayonlari doirasida namoyon bo'ladi. Jazo choralarining normativ-huquqiy asoslari qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan bo'lib, ularning muayyan ro'yxati jinoiy-huquqiy xarakterdagi asosiy jazo turi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, har qanday asosiy jazo chorasingning jinoyat sodir etilishining o'ziga xos holatlariga nisbatan qo'llanishi natijasida uning barcha maqsadlariga to'liq erishish imkoniyati doim ham kafolatlanmagan. Mazkur maqolada yuqoridaq holatlardan kelib chiqqan holda qo'shimcha jazo tushunchasiga atroficha to'xtalib o'tilib, mavzu yuzasidan muallifning xulosa va takliflari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat qonunchiligi, jazolar, asosiy jazo, qo'shimcha jazo, majburiylik va ixtiyorilik, tayinlash asoslari, jazo maqsadi

## ПОНЯТИЕ И СОЦИАЛЬНОЕ СОДЕРЖАНИЕ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО НАКАЗАНИЯ

**Аметова Нуржамал Кудайбергеновна,**  
докторант Каракалпакского государственного  
университета имени Бердаха

**Аннотация.** В уголовном законодательстве нашей страны наказания традиционно подразделяются на основные и дополнительные. Подобная классификация существует и в уголовном праве большинства зарубежных государств и служит целям совершенствования уголовно-правовой политики и индивидуализации наказания. В связи с этим возникает необходимость научно-теоретического анализа сущности, целей, функций дополнительных наказаний, а также их социально-правового значения. Проблемы, связанные с сущностью и юридической природой дополнительных наказаний, во многом обусловлены тем, что в Уголовном кодексе Республики Узбекистан отсутствует чёткое разграничение между основными и дополнительными видами наказаний. Аналогичные затруднения наблюдаются и в отношении целей наказания, порядка его назначения и применения. Особенности дополнительных наказаний проявляются в условиях их назначения, содержании, порядке применения, вопросах освобождения от отбывания наказания, наличии судимости, в рамках применения амнистии и помилования. Нормативно-правовые основания мер наказания определяются законодателем, и их конкретный перечень может рассматриваться как вид основного наказания уголовно-правового характера. Вместе с тем применение любого основного наказания к индивидуальным обстоятельствам совершения преступления не всегда гарантирует достижение всех его целей. В настоящей статье подробно рассмотрено понятие дополнительного наказания, а также представлены авторские выводы и предложения по данной теме.

**Ключевые слова:** уголовное законодательство, наказания, основное наказание, дополнительное наказание, обязательность и факультативность, основания назначения, цель наказания

## THE CONCEPT AND SOCIAL CONTENT OF ADDITIONAL PUNISHMENT

Ametova Nurjamal Kudaybergenovna

Doctoral student

at Karakalpak State University named after Berdakh

**Abstract.** In the criminal legislation of our country, punishments are traditionally divided into main and additional punishments. Such a classification is also present in the criminal legislation of most foreign countries, which serves to improve criminal law policy and individualize punishment. As a result of this differentiation of punishments, there is a need to conduct scientific and theoretical discussions about the essence, purpose, tasks of additional punishments, as well as their socio-legal significance. Problems related to the essence and legal nature of additional punishments arise due to the general definition of punishment in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, that is, its clear division into main and additional types. A similar situation is observed in the purposes of punishment, the procedure for its imposition, and the process of its application. The specifics of additional types of punishments are manifested within the framework of the conditions for imposing these punishments, their content, the

*procedure for their application, issues of exemption from serving a sentence, the status of convictions, amnesty and pardon processes. The normative-legal basis of punitive measures is established by the legislator, and their specific list can be considered as the main type of punishment of a criminal-legal nature. At the same time, the possibility of fully achieving all its goals as a result of applying any main punishment to specific circumstances of the commission of a crime is not always guaranteed. In this article, based on the above circumstances, the concept of additional punishment is discussed in detail, and the author's conclusions and proposals on the topic are presented.*

**Keywords:** criminal legislation, punishments, principal punishment, additional punishment, mandatory and discretionary nature, grounds for imposition, purpose of punishment

## Kirish

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi jazolar an'anaviy tarzda asosiy va qo'shimcha toifalarga ajratiladi. Bunday tasnif aksariyat xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligidagi ham mavjud bo'lib, u jinoyat-huquqiy siyosatni takomillashtirish va jazoni individuallashtirishga xizmat qiladi. Jazolarni bunday farqlash natijasida qo'shimcha jazolarning mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda ularning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati haqida ilmiy-nazariy muhokamalar olib borish zarurati yuzaga keladi.

Qo'shimcha jazolarning amaliyotda to'g'ri qo'llanishi jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali choralarini ta'minlaydi. Qo'shimcha jazolar nafaqat jinoyat sodir etgan shaxsni jazolash vositasi, balki uni tuzatish, ijtimoiy muhitga qayta moslashtirish, boshqa shaxslarga ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli mazkur institutning nazariy asoslari hamda mazmunini chuqur o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Sud-huquq amaliyotida qo'shimcha jazolar yetarli asoslari bilan belgilanmasligi holatlari ham kuzatilmoxda. Bu qo'shimcha jazolarning mohiyati, maqsadi, qo'llanish tartibini tahlil qilish va uni takomillashtirishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Shu sababli qo'shimcha jazo institutining nazariy va ijtimoiy mazmunini o'rganish, uning amaliy qo'llanishi va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzuning naqadar dolzarbligini anglatadi.

Mazkur mavzuni o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad - qo'shimcha jazo institutining nazariy asoslari yoritib berish, mazmun-mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Qo'shimcha jazolarni belgilashda va amaliyotda qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish ham mavzuning muhim maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi.

Jazo choralarining normativ-huquqiy asoslari qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan bo'lib, ularning muayyan ro'yxati jinoiy-huquqiy xarakterdagi asosiy jazo turi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, har qanday asosiy jazo chorasingning jinoyat sodir etilishining o'ziga xos holatlariga nisbatan qo'llanishi natijasida uning barcha maqsadlariga to'liq erishish imkoniyati doim ham kafolatlanmagan. Bunday

sharoitda jinoyat qonunchiligidan nazarda tutilgan vazifalarning to'liq amalga oshirilishini ta'minlash nuqtayi nazaridan qo'shimcha jazolarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Qo'shimcha jazolarning mohiyati va yuridik tabiatini bilan bog'liq muammolar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jazo tushunchasiga berilgan umumiyligi ta'rifi, ya'ni uning asosiy va qo'shimcha turlariga aniq ajratilmagani sababli yuzaga keladi. Jazoning maqsadi, uni tayinlash tartibi va qo'llash jarayonida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi. Qo'shimcha jazo turlarining o'ziga xos xususiyatlari faqat ushbu jazolarni tayinlash shartlari, ularning mazmuni, qo'llanish tartibi, jazoni o'tashdan ozod qilish masalalari, sudlanganlik holati, amnistiya va afv jarayonlari doirasida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8-moddasi 2-qismida "Hech kim bir jinoyat uchun ikki marta jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas", – degan qoida mustahkamlangan. Ushbu norma bir jinoyat uchun faqat bitta asosiy jazo tayinlanishi mumkinligini ham tasdiqlaydi.

### **Material va metodlar**

Ushbu mavzu, ya'ni qo'shimcha jazo tushunchasi va uning ijtimoiy mazmunini yoritishda qonunchilik normalari, boshqa mualliflarning fikrlari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Jinoyat qonunchiligidan kelib chiqadigan asosiy tamoyillardan biri shundan iboratki, bitta jinoyat uchun faqat bitta asosiy jazo tayinlanishi lozim. Agar qo'shimcha jazolar instituti mavjud bo'lmasa, ushbu masalani hal qilishning ikki asosiy yo'li bo'lishi mumkin edi: yoki bitta jinoyat uchun ikkita asosiy jazo tayinlash imkoniyatini nazarda tutish, yoki hozirgi amaliyatda qo'llanayotgan "bitta jinoyat – bitta asosiy jazo" prinsipini saqlab qolish.

Shu bilan birga, "asosiy va qo'shimcha jazolar" konstruksiyasi tufayli ushbu prinsip buzilmaydi. Chunki bitta jinoyat uchun faqat bitta asosiy jazo tayinlanadi, sud esa unga qonun chiqaruvchi tomonidan qo'shimcha jazolar sifatida belgilangan boshqa jinoiy-huquqiy choralarни qo'shishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasi 1-qismida jazo tushunchasining ta'rifi berilgan (uning turlarini asosiy va qo'shimcha turlarga ajratishdan qat'i nazar). Ushbu moddada quyidagicha qayd etilgan: "Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasi".

Jazoning ko'rsatilgan barcha belgilari bir vaqtning o'zida qo'shimcha jazolarni ham tavsiflaydi. Ular jazoning asosiy turlari kabi quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi: 1) jazo majburlov chorasi; 2) jazoda davlat majburlovi ifodalanadi; 3) u faqat jinoyat uchun va aynan uni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan tayinlanishi mumkin; 4) jazo faqat jinoyat qonunida nazarda tutilgan bo'lsa; 5) jazo sud hukmi bilan tayinlanishi mumkin; 6) jazo mahkumni JKda nazarda tutilgan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat bo'lsa.

Keltirilgan barcha belgilar yig'indisi qo'shimcha jazolarni ham to'liq tavsiflaydi. Ular, shuningdek, davlat majburlov choralari bo'lib, sud hukmi bilan qo'llanadi, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan tayinlanadi va ushbu shaxsni jinoyat qonunida nazarda tutilgan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki cheklashda ifodalanadi.

Ijtimoiyadolat va ogohlantirish tamoyillarini hisobga olgan holda qo'shimcha jazolarni ularning alohida turlari sifatida emas, balki yaxlit va yig'ma hodisa sifatida yoki huquqiy institut umumiyl tushunchasining elementi sifatida ko'rib chiqish zarur. Bunday yondashuv shuni anglatadiki, qo'shimcha jazolar mohiyatan asosiy jazolar bilan bir xil huquqiy mazmunga ega bo'lishi lozim. Ular ham jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanadigan davlat majburlov choralarini o'z ichiga oladi hamda qilmish uchun sud hukmi asosida berilgan jazolash va qoralash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu xulosa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 77-moddasi 1- va 2-qismlarida mustahkamlangan qoidalarga asoslanadi. Mazkur normalarga muvofiq, sudlanganlik shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm etilganidan kelib chiqadigan huquqiy holatdir. Jazo tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan deb hisoblanadi. Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs esa sudlanmagan deb hisoblanadi. Shuningdek, Jinoyat kodeksining 80-moddasi 1-qismida: "Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlash muddatlari asosiy va qo'shimcha jazolar o'tab bo'lingan yoki ijro etilgan kundan boshlab hisoblanadi", - deb qayd etilgan.

Ko'rinish turibdiki, sudlanganlik holati, ya'ni jinoyat sodir etgan shaxsning sudlanganligi to'g'risidagi rasmiy bayonot nafaqat asosiy jazolar, balki sud hukmi bilan tayinlangan qo'shimcha jazolar bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli qo'shimcha jazolarni faqat ikkinchi darajali jazo turi sifatida emas, balki jinoyat-huquqiy ta'sir choralarining muhim elementi sifatida baholash lozim. Shu tariqa qo'shimcha jazolarning mohiyati jinoyatni va uni sodir etgan shaxsni davlat nomidan qoralash, tanbeh berishdan iborat bo'lib, ular mahkumni huquq va erkinliklardan mahrum qilish va cheklashda o'zining moddiy ifodasini topadi.

V.K. Duyunovning yozishicha, asosiy va qo'shimcha jazolar yagona ijtimoiy maqsadga, yagona mohiyatga, umumiyl maqsad va funksiyalarga ega [1, 97-98-b.]. Shu bilan birga, jazoning mohiyati uning qo'shimcha turlarida asosiy jazolarga nisbatan kamroq ifodalangan. Jinoyatni va uni sodir etgan shaxsni qoralash, hukm qilishda asosiy yunki sud tomonidan tayinlanadigan asosiy jazo turi o'z zimmasiga oladi, chunki u yanada muhimroq huquqiy cheklovlar bilan bog'liq. Qo'shimcha jazo esa go'yo davlat tomonidan qoralash va tanbeh berish darajasini to'ldiradi va kuchaytiradi. "Qo'shimcha jazo atamasining o'zi, - deb ta'kidlagan edi A.L. Svetinovich, - bu jazo asosiy jazoga nisbatan mahkumga majburiy ta'sir ko'rsatishning yordamchi jazosini anglatadiki, u har doim ham qo'llanmaydi, balki faqat asosiy jazoni tayinlash orqali erishish qiyin bo'lgan yoki umuman mumkin bo'limgan ta'sirga erishish zarurati tug'ilganda qo'llanadi" [2, 18-b.].

Jinoiy jazo nazariyasida jazoning to'ldiruvchanlik prinsipi murakkab va bahsli masalalardan biri hisoblanadi. XX asrning 70-yillaridayoq G.A. Kriger va G.L. Krigerlar bu

borada shunday fikr bildirgan edilar: "Jazoning axloqan tuzatish va qayta tarbiyalashga qaratilgan maqsadini to'g'ri anglash hamda jinoiy jazo choralarining xilma-xilligi asosiy va qo'shimcha jazolarni uyg'unlashtirish uchun katta imkoniyat yaratadi" [3]. Ularning fikricha, asosiy jazo ijrosi davomida mahkumning axloqan tuzalishiga erishish mumkin bo'lsa, uning qayta tarbiyasi qo'shimcha jazo jarayonida yakunlanadi.

Biroq bu xulosa turli nuqtayi nazarlardan tanqid qilingan. Jumladan, I.M. Galperin va Y.B. Melnikova tuzatish va qayta tarbiyalashni alohida hodisalar sifatida ko'rib chiqish uchun yetarli asos yo'qligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, jazo turlarining asosiy yoki qo'shimcha shaklda qo'llanishi ularning samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida aniq ilmiy dalillar mavjud emas [4, 7-b.]. Shu bois jazoning to'ldiruvchanlik prinsipi jinoiy jazo tizimining dolzarb va bahsli jihatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

I.M. Galperin va Y.B. Melnikova "qo'shimchalik" tamoyilini asoslashga qaratilgan yondashuvlarni tanqid qilib, bu tamoyilni asosiy va qo'shimcha jazolar oldida turgan turli maqsadlar bilan bog'lash urinishlarini asossiz deb biladilar [4, 8-b.]. Ularning fikricha, bu yondashuv mohiyatan A.L. Svetinovich tomonidan ilgari surilgan pozitsiya bilan hamohangdir. Svetinovich esa qo'shimcha jazolar ham asosiy jazolar singari bir xil maqsadga xizmat qilishini ta'kidlagan [5, 16-b.].

Bu fikr M.D. Shargorodskiy tomonidan ilgari surilgan nazariyaga mos keladi. Shargorodskiy jazolar tizimidagi barcha konkret jazo turlarini bir-biridan farqlashda ularning pirovard maqsadlarini emas, balki ushbu maqsadlarga erishish vositalarini asosiy mezon sifatida ko'rib chiqish lozimligini qayd etgan [6, 55-b.]. Ya'ni asosiy va qo'shimcha jazolar turlicha bo'lishiga qaramay, ularning umumiyl vazifasi jinoyatchilarni jazolash va qayta tarbiyalashdir.

Shundan kelib chiqib, qo'shimcha jazolarni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan alohida institut sifatida emas, balki ularning mazmuni, funksiyalari, jinoyat qonunchiligidagi vazifalarini bajarish darajasi hamda jazo maqsadlariga erishishni ta'minlash qobiliyati asosida tahlil qilish lozim. Boshqacha aytganda, qo'shimcha jazolarning o'ziga xos jihatlari ularning mohiyatida yoki qo'llanish maqsadlarida emas, balki huquqiy tabiatida, amaliy qo'llanishida va ijro etilish mexanizmlarida namoyon bo'ladi.

Ko'plab olimlar tomonidan qo'shimcha jazolarning ahamiyati va ularning jazo tizimidagi o'rni turlicha talqin etilgan. N.A. Struchkovning fikriga ko'ra, jazolarni asosiy va qo'shimcha turlarga ajratish katta amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki qo'shimcha jazolar jazoni individuallashtirish prinsipini amalga oshirish vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi [7, 61-b.]. Ya'ni har bir jinoyat ishi bo'yicha qo'llanadigan jazo choralarini aybdorning shaxsiy xususiyatlari va jinoyatning o'ziga xos jihatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Bu fikrni N.F. Kuznetsova ham qo'llab-quvvatlab, qo'shimcha jazolar asosiy jazolarga qaraganda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini va uni sodir etgan shaxsning xususiyatlarini yaxshiroq hisobga olishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [8, 29-b.]. Boshqacha aytganda, qo'shimcha jazolar jinoyatchining shaxsiy xususiyatlariga va jinoyatning o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda belgilanadi.

P.P. Galiakbarovning fikriga ko'ra, qo'shimcha jazolar ham asosiy jazolar singari jazoni individuallashtirish jarayonida muhim rol o'ynaydi [9, 352-b.]. E.N. Jevlakov esa

qo'shimcha jazolar ogohlantiruvchi va individuallashtiruvchi funksiyaga ega ekanligini qayd etadi [10, 369-370-b.]. Bu shuni anglatadiki, qo'shimcha jazolar jinoyatchiga nisbatan nafaqat jazolovchi ta'sir ko'rsatadi, balki ularning kelgusida jinoyat sodir etishining oldini olishga ham xizmat qiladi.

V.K. Duyunovning yondashuviga ko'ra, qo'shimcha jazolar sud tomonidan tayinlanadigan yordamchi vosita bo'lib, ular asosiy jazoning jazolash va tarbiyaviy-ogohlantirish ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi [11, 102-b.]. Bu jarayonda qo'shimcha jazolar jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan aniq omillar va sharoitlarga qarshi yo'naltirilgan choralar sifatida ham ko'rib chiqiladi. Shu sababli ularning belgilanishi jinoyatchining shaxsiy jihatlarini, jinoyatning sodir etish sabablarini va huquqiy ta'sir o'tkazish zaruratinini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Shunday qilib, qo'shimcha jazolar jazo tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular sud tomonidan jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari va jinoyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda tayinlanadi. Ular nafaqat jazoni individuallashtirishga, balki jinoyatchini tuzatishga, uning kelgusida jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Shu bois qo'shimcha jazolarning roli faqat ikkinchi darajali jazo turi sifatida emas, balki jazo tizimidagi muhim vosita sifatida baholanishi kerak.

Qo'shimcha jazolar jinoiy javobgarlik tizimining muhim elementlaridan biri bo'lib, ular nafaqat asosiy jazolarni to'ldiradi, balki jazoning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. N.F. Kuznetsova bu borada shuni ta'kidlaydiki [12, 29-b.], qo'shimcha jazolar asosiy jazolarni og'irlashtirish va ularning ta'sir doirasini kengaytirish vositasi hisoblanadi. Biroq ilmiy adabiyotlarda muhim bir jihat – agar qo'shimcha jazo O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismida majburiy choralar sifatida (kumuliyativ sanksiya sifatida) ko'rsatilgan bo'lsa, u holda bunday jazo nafaqat jazoni individuallashtirish, balki jinoiy javobgarlik va jazolarni farqlash vositasi ham bo'lib xizmat qilishi yetarlicha yoritilmagan.

Bu shuni anglatadiki, qonun chiqaruvchi organ majburiy qo'shimcha jazolarni belgilash orqali sodir etilgan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, javobgarlik va jazo chegaralarini aniq belgilaydi. Demak, bunday jazolar faqat yordamchi rol o'ynamaydi, balki muayyan jinoyatlar uchun xos bo'lgan javobgarlik tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda qo'shimcha jazolarni asosan yordamchi vosita sifatida tavsiflashga moyillik mavjud. N.F. Kuznetsovaning fikriga ko'ra [13], qo'shimcha jazolar faqat asosiy jazoga qo'shimcha tarzda belgilanadi va mustaqil ravishda qo'llanishi mumkin emas. Bu fikrni A.L. Svetinovich ham qo'llab-quvvatlab, qo'shimcha jazo mahkumga majburiy ta'sir ko'rsatishning yordamchi vositasi ekanligini ta'kidlaydi [14, 29-b.]. Biroq bu yondashuv mutlaq to'g'ri emas, chunki jinoyat qonunida ayrim jazo turlari ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Qo'shimcha jazolarning mohiyatini va yuridik tabiatini aniqlashda ularning yordamchi xususiyatini ta'kidlash yetarli emas. Masalan, jazo choralaridan tashqari sud tomonidan qo'llanishi mumkin bo'lgan tibbiy majburlov choralar ham yordamchi vosita sifatida qaraladi. Shu sababli qo'shimcha jazolarni faqat yordamchi choralar deb

baholash ularning real ta'sir doirasini toraytiradi va jazo tizimidagi rolini to'liq ohib berishga imkon bermaydi [15, 76-b.].

Ilmiy adabiyotlarda qo'shimcha jazolarning batafsil ta'riflari ham taklif etilgan. Masalan, A.L. Svetinovichning fikriga ko'ra, "qo'shimcha jazo – qonunda nazarda tutilgan, jinoiy javobgarlikni individuallashtirish uchun mo'ljallangan, sud tomonidan jinoyat sodir etganlik uchun asosiy jazoga qo'shimcha ravishda qo'llanadigan, uni yagona jazo bilan birlashtiradigan va mahkumlarni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash, ular va boshqa shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish bo'yicha yagona maqsadlarga erishishga ko'maklashadigan, mahkum shaxsining ayrim jihatlariga tanlab ta'sir ko'rsatish yo'li bilan qo'llanadigan yordamchi davlat majburlov chorasi" [16].

Qo'shimcha jazolar jinoiy javobgarlik tizimining muhim elementlaridan biri bo'lib, ular faqat asosiy jazoni to'ldirish bilan cheklanmay, balki jazoni individuallashtirish va jinoiy javobgarlikni differensiatsiya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Bizningcha, qo'shimcha individuallashtiruvchi jazo jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanadigan majburlov chorasi sifatida asosiy jazoga qo'shimcha ravishda belgilanadi va uni to'ldirib, yagona jazo tizimini shakllantiradi.

V.K. Duyunov qo'shimcha jazolarning huquqiy tabiatini ularning asosiy jazoga bog'liqligi va jazo maqsadlariga xizmat qilish darajasiga qarab aniqlaydi. Uning fikriga ko'ra, qo'shimcha jazolar yordamchi rol o'ynaydi va jazoning tarbiyaviy, ogohlantiruvchi va jazolash funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularni tayinlash majburiy yoki ixtiyoriy bo'lishi mumkin, ya'ni ba'zi hollarda qonunchilik sudni qo'shimcha jazo tayinlashga majbur qilsa, boshqa holatlarda esa sud uni tanlash huquqiga ega bo'ladi [16, 103-b.].

Muhim jihat shundaki, barcha jinoyatlar uchun qo'shimcha jazolar sanksiyalarda ko'zda tutilmagan bo'lib, ular faqat muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lganda qo'llanadi. Duyunovning fikriga ko'ra, sud qo'shimcha jazolarni faqat asosiy jazoga qo'shimcha ravishda tayinlashi mumkin, bu esa jazoni individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sud ish holatlari va jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, umumiyl jazo tizimining tarbiyaviy va ogohlantirish imkoniyatlarini oshirish hamda jazo maqsadlariga erishish uchun qo'shimcha jazoga ehtiyoj bor yoki yo'qligini aniqlaydi.

### Tadqiqot natijalari tahlili

Qo'shimcha jazolar asosiy jazolar bilan bir xil bo'lmasligi va undan og'irroq bo'lishi mumkin emas. Ularning asosiy xususiyatlari jinoiy javobgarlik va jazoni individuallashtirish bilan bog'liq. Qo'shimcha jazolarni ta'riflashda quyidagi jihatlar muhim: 1) yuridik tabiati; 2) majburiyligi yoki ixtiyoriyligi; 3) tayinlash asoslari; 4) jazo maqsadlariga xizmat qilishi; 5) faqat ayrim maqsadlarga yo'naltirilishi; 6) asosiy jazolar bilan birgalikda yagona jazo chorasini tashkil etishi; 7) asosiy funksiyalari.

Yuqoridagilarga asoslanib, jazoning qo'shimcha turlarining quyidagi ta'rifini shakllantirish mantiqiy ko'rindi: Qo'shimcha jazo jazolar ro'yxatiga kiritilgan, qoida tariqasida, alohida jazo maqsadlariga erishish uchun yengillashtiruvchi jazolar bo'lib, ular sodir etilgan jinoyatning o'ziga xos xususiyatlari va aybdorning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlarni hisobga olgan holda yoki qonunning to'g'ridan to'g'ri

ko'rsatmasiga ko'ra yoxud sudning ixtiyoriga ko'ra yagona (asosiy jazo bilan bir qatorda) jazo chorasi yengillashtirish va aniqlashtirish uchun tayinlanadi hamda mahkumning huquqiy maqomi va shaxsining boshqa ayrim (asosiy jazoga nisbatan) tomonlariga tanlab ta'sir ko'rsatish orqali jinoiy javobgarlik va jazoni differensiallash va individuallashtirish uchun mo'ljallangan.

### Xulosalar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Qo'shimcha jazolarning maqsadlari asosiylari bilan bir xil, ammo asosiylardan farqli ravishda ular individualdir, ular jinoiy-huquqiy normalarning sanksiyalari doirasida javobgarlikni aks ettiruvchi choralardir. Aslida ular asnosida ma'lum bir jinoyat tarkibidagi subyektning nisbatan aniq belgilari yotadi.

2. Muayyan lavozimlarni egallah yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilishning ijtimoiy maqsadi shaxslar, ularning guruhlari, birlashmalari, yuridik shaxslar va huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilarining o'ziga xos manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Bu aybdorning ma'lum bir lavozimdan yoki belgilangan tartibda maxsus berilgan yoki erishilgan huquqdan o'z manfaati uchun boshqa shaxslar yoki davlatning manfaatlari yoki boshqa shaxslarga, jamiyatga, davlatga zarar yetkazish uchun foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lismiga olib keladi. Bu orqali davlat xizmatining o'ziga xos turlari vijdonsiz shaxslardan himoya qilinadi, fuqarolarni vijdonsiz amaldorlardan himoya qilishga, davlat xizmatining obro'sini qaytarishga va oshirishga, uning faoliyatini jamiyat manfaati uchun yo'naltirishga, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan muayyan faoliyat turlariga qo'yiladigan talablarga rioya qilishga ko'mak beradi.

Boshqalardan farqli o'laroq, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga qo'shilgan taqdirda ushbu jazo faqat asosiy jazo o'tab bo'linganidan keyin amalga oshirilishi mumkin va shu orqali asosiy jazoning amal qilish muddatini ancha oshiradi (ba'zi hollarda belgilangan lavozimlarni egallah aslida umrbod xarakterga ega bo'lisi mumkin), bu uning repressiv va xususiy profilaktika salohiyatini oshiradi.

3. Jinoiy jazo sifatida harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega, chunki u mukofotlash siyosatini takomillashtirish bilan bog'liq. Uning ijtimoiy maqsadi shundan dalolat beradiki, sanab o'tilgan unvon va mukofotlar bilan birga shaxs o'ziga xos maqomini ham yo'qotadi, bu unga davlat va jamiyat tomonidan namoyon etiladigan alohida munosabatni bekor qiladi, chunki bunday mukofotlar har xil imtiyozlar bilan birga keladi, mahkum ularni ham yo'qotadi. Shu munosabat bilan moddiy ahvoli, ba'zi hollarda rasmiy yoki kasbiy faoliyati o'zgaradi.

Ushbu jazo orqali aholiga unvon, mukofot egasining davlat va jamiyat oldidagi xizmatlari yuqori baholanishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos ma'naviy qadriyatlar singdiriladi, bu unga va uning faoliyatiga, harakatlariga umumiylar hurmatni keltirib chiqaradi. O'zini obro'sizlantirish bilan birga o'z xizmatlariga bo'lgan alohida munosabatga ham putur yetkazadi, shuning uchun davlat shaxsni ulardan mahrum qilish huquqini o'zida saqlab qoladi va shu orqali fuqarolik jamiyatiga har qanday shaxs, hatto juda munosib shaxs ham, ijtimoiy xavfli harakat uchun to'liq javobgar bo'lisi kerakligini ko'rsatadi.

## REFERENCES

1. Dzyunov V.K. Problemy ugolovnogo nakazaniya v teorii, zakonodatel'stve i sudebnoy praktike [Problems of criminal punishment in theory, legislation and judicial practice]. 2000, pp. 97–98.
2. Tsvetinovich A.L. Dopolnitel'nyye nakazaniya [Additional penalties]. Kuibyshev, 1989, p. 18.
3. Kriger G.A., Kriger G.L O dopolnitel'nykh merakh nakazaniya [On additional measures of punishment]. *Soviet Justice*, 1972, vol. 1, pp. 12–13.
4. Gal'perin I.M., Mel'nikova YU.B. Dopolnitel'nyye nakazaniya [Additional penalties]. Moscow, Juridicheskaya literatura Publ., 1981, p. 7.
5. Tsvetinovich A.L. Dopolnitel'nyye nakazaniya [Additional penalties]. 1989, pp. 16–18.
6. Shargorodskiy M.D. Sistema nakazaniy i ikh effektivnost' [The system of punishments and their effectiveness]. *Sovetskoye gosudarstvo i pravo*, 1968, vol. 11, p. 55.
7. Kurs sovetskogo ugolovnogo prava [Course of Soviet criminal Law]. Moscow, TLI Publ., 1970, p. 61.
8. Kuznetsovoy N.F., Tyazhkovoy I.M. Kurs ugolovnogo prava [Criminal Law Course]. Moscow, 2002, vol. 2, p. 29.
9. Kruglikova L.L. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. Moscow, BEK Publ., 1999, p. 352.
10. Zdravomyslova B.V. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. Moscow, Juridicheskaya literatura Publ., 1994, pp. 369–370.
11. Duyunov V.K. Problemy ugolovnogo nakazaniya [Problems of criminal punishment]. 2000, pp. 102–103.
12. Kuzentsovoy F.N., Tyazdkovoy I.M. Kurs ugolovnogo prava [Criminal Law Course]. 2002, vol. 2, p. 29.
13. Stanovskiy M.N. Naznacheniye nakazaniya [Assignment of punishment]. St. Petersburg, Legal Center Publ., 1999, p. 29.
14. Kruglikova L.L. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. 2014, p. 352.
15. Ametova N.Q. Harbiy yoki maxsusunvondan mahrum etish tarzidagi qo'shimcha jazo turini tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari [Specific features of the imposition of an additional type of punishment in the form of deprivation of military or special rank]. *Journal of Legal Studies*, 2025, vol. 10, no. 10, pp. 74–79.
16. Rozimova Q. Bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash [Sentencing for multiple crimes and multiple sentences]. Tashkent, TSUL Publ., 2020, p. 132.

# KRIMINOLOGIYA

## VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2025-yil 2-som